

“INFORMATIKA VA AT” FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA INTERFAOL METODLARNING INTEGRATSIYASI

Nishonova Yulduz O’lmasovna

O’zbekiston respublikasi Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani 57-umumiy o’rta ta’lim maktabi informatika va axborot texnologiyalari fani o’qituvchisi

Ataxonova Erkinoy Jo’rayevna

O’zbekiston respublikasi Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani 10-umumiy o’rta ta’lim maktabi informatika va axborot texnologiyalari fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Informatika va AT” fanidan “Mantiq asoslari” mavzusini «MindMaster» dasturiy vositasidan foydalanib “Idrok xaritasi” metodi yordamida o’qitish yoritilgan.

Kalit so’zlar: interfaol metodlar, “Informatika va AT”, “Idrok xaritasi” metodi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim sifati, fikrlash jarayoni, g’oyalar.

ИНТЕГРАЦИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА "ИНФОРМАТИКА И ИТ"

Аннотация: В данной статье описано преподавание темы «Основы логики» из предмета «Информатика и информационные технологии» с помощью программного инструмента «MindMaster» по методу «Карта восприятия».

Ключевые слова: интерактивные методы, «Информатика и информационные технологии», метод «Карта восприятия», современные информационно-коммуникационные технологии, качество образования, мыслительный процесс, идеи.

INTEGRATION OF MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SUBJECT "INFORMATICS AND IT"

Annotation: This article describes the teaching of the topic "Fundamentals of Logic" from the subject "Computer Science and Information Technology" using the MindMaster software tool using the "Perception Map" method.

Keywords: interactive methods, "Computer Science and Information Technologies", "Perception Map" method, modern information and communication technologies, quality of education, thought process, ideas.

Bugungi kunda kelajagimiz bo'lgan o'quvchi-yoshlarni yuksak madaniyatli, bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o'zini mas'ul ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev «Bilimdon va ma'naviy yetuk bo'lgan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni egallagan hamda boshqara oladigan malakali mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirish bunday islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, birinchi navbatda kadrlar potensialiga, ularning kasb jihatidan tayyorgarligiga bog'lik, bo'ladi», deb ta'kidlagan edilar. Shunday ekan, axborot kommunikatsion hamda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" asosida qator reja va loyihalar ishlab chiqildi. Bugungi ta'lim tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradigan o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda, ta'lim berishga innovatsion yondashuvlar ham o'zgarib, internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlari tufayli o'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, asosiy tashkilotchiga aylanmoqdalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Informatika va AT fanini o'qitishni o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari, ya'ni bilim olish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy kompetensiyalarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlash, kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish imkonini beruvchi ba'zi zamonaviy texnologiyalar va o'qitish metodlarini qo'llagan holda loyihalashtirish ayni muddaodir.

Quyida umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va AT fanidan 9-sinf o'quvchilariga "Mantiq asoslari" mavzusini o'qitishda interfaol metodlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish yuzasidan tavsiyalar keltiramiz.

O'quvchilarga "Idrok xaritasi" metodi bo'yicha yangi mavzu yuzasidan o'z shaxsiy qarashlarini sxemalarda ifodalash topshiriladi. O'quvchilarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Belgilangan vaqt yakunlangach, o'quvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

«Idrok xaritasi (ingl. Mind map – fikrlar xaritasi)» metodi – fikrlash jarayonida ma'lumotni inson idrok etishi uchun qulay shaklda – mantiqiy va assotsiativ sxemalarda aks ettirishning grafik metodi hisoblanadi. Idrok xaritasi fikrlash jarayonini aks ettiradi.

Jarayon boshlanganda, bitta fikr boshqalarini keltirib chiqaradi. Har qanday g'oya deyarli barcha yo'nalishlarda cheksiz rivojlanishi mumkin. Asosiy g'oya bir necha yirik g'oyani o'z ichiga oladi, ularning har biri, o'z navbatida, undan ham kichik g'oyalar ko'rinishida aniqlanadi. Har bir kichik fikr ma'lum bir global fikr bilan uzviy bog'liq. Ularning hammasini tasvirlash mumkin. Boshqacha aytganda, idrok xaritasi metodi kafolatlangan yakuniy natijani berish imkoniga ega:

- ma'ruza mashg'ulotlarida yangi bilimlarni bayon qilish (jamoaviy);
- amaliy mashg'ulotlarida bilimlarni tekshirish, mustahkamlash (kichik guruhlarda);
- mustaqil ta'limda ijodiy ishlash, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish (individual).

Idrok xaritasi metodini olib borish bosqichlari:

1. Miya bo'roni. Bu mulohaza mavzusini, ya'ni asosiy mavzuni qidirishni maqsad qiladi. Odatda, xarita markazida – ko'rsatilgan mavzu, ma'lumot turadi.

2. To'ldirish. Asosiy g'oya aniqlanganda, u bilan bog'liq asosiy mavzularni ajratib ko'rsatish kerak. Ular qisqa nomlarga ega bo'lishi va xarita iyerarxiyasini yaratishi lozim. Agar toifalar juda mavhum bo'lsa, ularga rasmlarni biriktirish kerak: bu assotsiatsiyalarni yaratadi va fikrlarni tez tarqatish imkonini beradi. Xaritaning ikkinchi darajasi — mavzular, g'oyalar yaratila boshlagan joy. Ikkinchi darajada keltirilgan mavzular bir yoki ikki so'zdan iborat bo'lishi kerak. Agar xarita oddiy bo'lsa (uchinchi darajadan oshmasa), ikkinchi darajada taklif yoki eslatma keltirilishi mumkin.

3. Aniqlashtirish. Uchinchi va undan keyingi darajalar–g'oyalarni aniqlashtirish jarayoni. Bu yerda tavsifli iboralarni, eslatma va havolalarni ishlatish, shuningdek, xarita elementlarini bir-biri bilan bog'lash mumkin. Masalan, turli darajadagi har xil g'oyalar, eslatma va havolalar o'rtasidagi aloqalarni belgilash mumkin. Buning yordamida xarita mantiqan boyiydi.

Fikr xaritalari qog'oz yoki mobil ilovalarda tuzilishi mumkin. Qo'l bilan chizishning qulayligi kamroq, chunki idrok xaritasini to'ldirish va takomillashtirish jarayonida tarmoqlar ko'p siljiydi va o'zgaradi. Ilovalar yordamida buni bir yoki ikki marta bosish orqali amalga oshirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar yordamida fikrlar xaritasida materialni tasavvur qilish, audio yoki videotarkib bilan to'ldirish, shuningdek, ushbu elementlarning barchasini ko'chirish mumkin.

Idrok xaritasi bilan ishlash uchun ba'zi mashhur ilovalar: Bubble.us, Coogle, FreeMind, iMindMap, MindManager, Mindomo, Popplet, SpiderScribe, XMind. Idrok xaritasi dars jarayonida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tuzishga yordam beradi.

Shuningdek, an'anaviy tahlilda o'tkazib yuborilgan muhim faktlarni ko'rish imkonini beradigan assotsiativ fikrlashni faollashtirishga yordam beradi. Idrok xaritasi barcha materiallarni bitta mavzu bo'yicha to'plash, barcha jihatlarini ko'rib chiqish va umumiylikni ko'rish imkonini beradi.

Quyida biz "Informatika va AT" fanidan "Mantiq asoslari" mavzusi bo'yicha nazariy bilimlarni berishda ko'rgazmalilik tamoyillarini amalga oshirish uchun mental xaritalar

tayyorlovchi EdrawMindMaster dasturidan foydalanish bo'yicha namuna keltirdik. Dastlab dastur ishga tushiriladi.



Ushbu ishchi oynadan kerakli mental xaritalardan biri tanlanadi va kerakli bo'limlar tushunchalar bilan birgalikda to'ldiriladi.



Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagoglar tomonidan interfaol metodlarning o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lim oluvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li - bu mashg'ulotlarni innovatsion metodlar yordamida tashkil etish va o'quv jarayonida foydalanishdir.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.
2. Informatika va axborot texnologiyalari. 9-sinf: O'qituvchilar uchun o'quv-metodik qo'llanma. M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov. – Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b.
3. Abdunazarova, Dilfuza Tukhtasinovna, Maxfuza Madraximova, and Shuhrat Madrahimov. "SOLVING EQUATIONS IS FOUNDATIONAL FOR MIDDLE AND HIGH SCHOOL MATH." Scientific Bulletin of Namangan State University 3.5 (2021): 7-10.
4. Axmedovna, Madraximova Maxfuza, Turdaliyev Sodiqjon Muminjonovich, and Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich. "CORRELATION COEFFICIENT AS A MATHEMATICAL SOLUTION OF ECONOMIC ISSUES." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 72-75.
5. Рахматуллаев, М. "Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори СТ Турғунов Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор МР Қодирхонов Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р. Жалалов Т А Ҳ Р И Р Ҳ А Й Ъ А Т И."
6. Shukurovich, Madrahimov Shuhratjon, and Madrahimova Mahfuza Ahmedovna. "Measures For Monitoring And Evaluation Of Power Activity In Higher Education." JournalNX: 423-426.
7. Madrakhimov, Shukhrat Shukurovich, and Mahfuza Akhmedovna Madrakhimova. "A HERO WHO SAW THE WAR!" 75-летию Победы Великого народа посвящается: Люди. События. Факты. 2020.
8. Madrakhimova, Mahfuza Akhmedovna, and Maftuna Islomjon qizi Yakubjonova. "CRITERIA OF MONITORING AND EVALUATION FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES." Scientific Bulletin of Namangan State University 1.6 (2019): 346-347.
9. Shukurovich, Madrakhimov Shukhratjon, et al. "OPPORTUNITIES TO DEVELOP STUDENTS' TEXT WORKING COMPETENCIES IN LECTURE LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 799-803.
10. Ugli, Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon, et al. "ORGANIZATIONAL FORMS OF COMPUTER SCIENCE EDUCATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 790-794.
11. Ugli, Muydinjonov Davlatjon Rafiqjon, et al. "USE OF REMOTE TECHNOLOGIES IN TEACHING COMPUTER SCIENCE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 785-789.
12. Siddikovna, Ahmedova Zebikhon, Marasulova Zulayho Abdullayevna, and Yuldashev Abdurauf Rozmatjonovich. "Innovations and Advanced Foreign Experiences in

Teaching Informatics in Higher Education in Interdisciplinary Relations." JournalNX (2021): 371-374.

13. Ruzmatjonovich, Yuldashev Abdurauf. "MODERN SOFTWARE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 795-798.

14. Turdaliyev, SM va boshqalar. "Axborot xavfsizligini biznes uchun strategik qilish." ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali 11.4 (2021): 1019-1021.

15. Muydinjonov, Davlatjon R. "Uch singulyar koeffitsientli Helmgolts tenglamasi uchun Xolmgren masalasi". Elektron tahlil va amaliy matematika jurnali 2019.1 (2019): 15-30.

16. Muydinjonov, Ziyodjon, and Davlatjon Muydinjonov. "INFORMATION, COMMUNICATION AND TECHNOLOGY (ICT) IS FOR TEACHER AND STUDENT." (2022).